



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No1
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 192 sahifa.
2026-yil yanvar*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT	10
Urinboev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI	15
Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA'SIRI	21
Xoliqulova Ra'no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich	
КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	25
Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович, Саттарова Зухра Илхомовна	
DAVLATNING YASHIL INVESTITSIYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI.....	31
Sharipboev Hasanboy Marks o'g'li, Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI O'SISHIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING STRATEGIK O'RNI: PREZIDENT MUHOJIRATNOMASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL	35
Ma'rupov Zahiriddin Feruzovich, Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI BIZNES-SUBYEKTLARINI BAHOLASH: ESG MEZONLARI ASOSIDA BARQARORLIK INDEKSINI ISHLAB CHIQISH VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	39
Po'latov Orzubek Fazliddin o'g'li, Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	43
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
AKSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020–2024-YILLAR BO'YICHA IQTISODIY TAHLILI	49
Karimov Diyorbek, Abdurashidov Abdusamad	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING SOLIQ TUSHUMLARI VA FUQAROLARNING SOLIQ INTIZOMIGA TA'SIRI	55
Maxkamova Dildora Shavkat qizi, Ergashev Shavkat Maxkamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В МАРКЕТИНГОВЫЕ КОММУНИКАЦИИ КОМПАНИЙ	59
Рахимжонов Аброр Марифжанович, Кахрамонов Хуршид Шухратович	
BOZOR IQTISODIYOTIDA UMUMIY TALAB VA UMUMIY TAKLIF	66
O'ktamova Shaxruza Abror qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOYIY TARMOQLAR ORQALI MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH USULLARI (O'ZBEKISTONDAGI YIRIK BRENDLAR MISOLIDA).....	70
Axmedova Robiya Rustamovna, Kadirova Sharafat Amonovna	
MINTAQANING INNOVATSION IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYASI	76
Rushana Taxirova, F.U.Umarov	
SAMARQAND VILOYATI UCHUN TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH	83
Alimardonova D.T., Tursunova G.R.	



BUXORO VILOYATINING MADANIY VA TARIXIY MEROSI ASOSIDA KREATIV TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH IMKONIYATLARI.....	91
Davronova G.O., Tursunova G.R.	
MAIN DIRECTIONS OF ECONOMIC AND SOCIAL EFFICIENCY IN SERVICE ENTERPRISES	96
Ilamonov Mehroj Akbar o'g'li, Xayitov Jamshid Xolvoyevich	
KREDIT MEXANIZMINING ELEMENTLARI O'RTASIDAGI ALOQADORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	102
Alimov Umid Xamid o'g'li, Umarov F. U.	
SURXONDARYO VILOYATIDA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINING AHAMIYATI.....	109
Mamanazarov Javohir Kamolovich, Xurramov Ramazon Allayor o'g'li	
XALQARO BANKLAR TOMONIDAN INVESTITSION LOYIHALARNI KREDITLASH MEXANIZMI VA UNING IQTISODIY TA'SIRI	115
Boltayeva O'g'iloy, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI VA UNING USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	119
Sharipova Mohinur, Uralova Sevara, Zaripova Sayohat Zafarovna	
DIRECTIONS FOR IMPROVING PUBLIC WELFARE AND REDUCING POVERTY.....	127
Jumanazarov Ro'zmurod, Rabbimov Elbek Abdulloevich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
THE EVOLUTION OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN: TRENDS, DRIVERS, AND FUTURE PROSPECTS.....	132
Madina Abdujabborova, Nozima Zufarova	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA JARAYONINI BOSHDAN KECHIRAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA BOZORLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	136
Hayot Abduqodirov, G'olib Baxriddinov, Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
WAYS TO ENSURE THE FINANCIAL STABILITY OF ENTERPRISES THROUGH THE USE OF MONETARY AND CREDIT INSTRUMENTS IN BANKS	141
Mustafaeva Khurliman Azat kizi, Baymuratova Zina Aqilbekovna	
KICHIK BIZNES SUBEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH YO'LLARI.....	147
Xakimova Go'zal Akbar qizi, Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
TAX SYSTEM FOR SMALL BUSINESSES	152
A. Juzbaev, Davletyarova Guldana	
WAYS TO DEVELOP THE PRACTICE OF USING INNOVATION IN BANKS.....	156
Umedov Abdullo, Khodjimamedov Akmal Ashurovich	
IMPROVING THE ACCOUNTING OF INCOME FROM CORE ACTIVITIES IN SAM GLASS LLC.....	161
Usmanov Shakhzod Shokhrukhovich, Musaeva Shoira Azimovna	
JAMIYATDA YOSHLAR ISHSIZLIGI VA UNING IQTISODIY OQIBATI.....	167
Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U. Umarov	
EKOLOGIYA TRANSFORMATSIYA VA IQTISODIY O'SISH: YASHIL IQTISODIYOT MODELI	174
Abduraxmonov Valijon G'ofurovich, Yusupova Dilnigor A'zamjon qizi	
ZAMONAVIY TURIZM: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	178
Abrorova Bahriniso Asqar qizi, Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich	
МОДЕЛИ СОЦИАЛЬНЫХ ИННОВАЦИИ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ	182
Алеуатдинова Шахноза, Нургалиева Нейла, Таджиева Мадина, Исраилова Феруза Назриллаевна	
IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI.....	187
Sobirov Iskandar Tohir o'g'li, Kenjayev M.G'	



EKOLOGIYANING INSON HAYOTIDAGI O'RNI VA ZAMONAVIY JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI.....	192
Jo'rayeva ferangiz Jamshid qizi, Karimova Sadoqat Amrillojevna	



УДК: 502/504:316.4

EKOLOGIYANING INSON HAYOTIDAGI O'RNI VA ZAMONAVIY JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Jo'rayeva ferangiz Jamshid qizi

Buxoro davlat tibbiyot instituti
Davolash fakulteti 224-guruh

Ilmiy rahbar:

Karimova Sadoqat Amrilloyevna

Buxoro davlat tibbiyot instituti
Tibbiy va biologik kimyo kafedrası,
PhD katta o'qituvchi
e-mail: karimova.sadoqat@bsmi.uz
orcid.org/0009-0006-4100-2979

Annotatsiya: : Ushbu ilmiy maqolada ekologiyaning inson hayotida tutgan o'rni, atrof-muhit va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ekologik muammolarning inson salomatligi, iqtisodiyot va ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, ekologik xavfsizlik va ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari yoritib berilgan. Maqolada zamonaviy ekologik muammolarni hal etish yo'llari bo'yicha ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, atrof-muhit, inson salomatligi, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, ekologik madaniyat.

Abstract: This scientific article provides a comprehensive analysis of the role of ecology in human life, the interrelationship between the environment and society, and the impact of environmental problems on human health, economy, and social development. It also covers the concept of sustainable development, environmental safety, and the formation of an ecological culture. The article presents scientific conclusions on ways to solve modern environmental problems.

Keywords: ecology, environment, human health, sustainable development, environmental safety, environmental culture.

Аннотация: Данная научная статья представляет собой всесторонний анализ роли экологии в жизни человека, взаимосвязи между окружающей средой и обществом, а также влияния экологических проблем на здоровье человека, экономику и социальное развитие. В ней также рассматриваются концепции устойчивого развития, экологической безопасности и формирования экологической культуры. В статье представлены научные выводы о путях решения современных экологических проблем.

Ключевые слова: экология, окружающая среда, здоровье человека, устойчивое развитие, экологическая безопасность, экологическая культура.

KIRISH

XXI asrda insoniyat taraqqiyoti fan-texnika yutuqlari, sanoatlashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda kechmoqda. Biroq ushbu rivojlanish jarayoni atrof-muhitga kuchli antropogen bosimni yuzaga keltirib, ekologik muammolarni global miqyosga olib chiqdi. Ekologiya nafaqat tabiiy jarayonlarni o'rganuvchi ilmiy yo'nalish, balki inson hayoti sifati, salomatligi va jamiyatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan ekologiyaning inson hayotidagi o'rni va zamonaviy jamiyat rivojlanishidagi ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida ishlab chiqarish hajmining ortishi, urbanizatsiya sur'atlarining tezlashishi hamda tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Iqlim o'zgarishi, atmosfera va suv resurslarining ifloslanishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi jarayonlar inson



salomatligiga, oziq-ovqat xavfsizligiga va iqtisodiy barqarorlikka bevosita tahdid solmoqda. Shu bois ekologik xavfsizlik masalasi nafaqat tabiiy fanlar doirasida, balki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tadqiqotlar markazida ham muhim o'rin egallamoqda.

Mazkur maqolada ekologiyaning inson hayotiga ta'siri, uning sog'liqni saqlash, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik bilan o'zaro bog'liqligi, shuningdek, zamonaviy jamiyatda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishning ahamiyati kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Ushbu tariqa ekologik barqarorlikni ta'minlashning ilmiy va amaliy asoslarini ochib berish tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologiyaning inson hayotidagi o'rni va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritishda klassik va zamonaviy ilmiy manbalar muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ekologiya fanining tizimli rivojlanishida Ю. Одумning ishlari alohida o'rin tutadi. U ekologiyani organizmlar va ularning yashash muhiti o'rtasidagi murakkab energetik hamda funksional bog'liqliklarni o'rganuvchi integral fan sifatida talqin qiladi hamda ekotizim tushunchasini markaziy kategoriya darajasiga ko'taradi. Uning konsepsiyasida biosfera jarayonlari moddalar aylanishi va energiya oqimlari orqali izohlanadi, bu esa inson faoliyatining tabiiy tizimlarga ta'sirini baholashda muhim metodologik asos yaratadi.

N.F. Реймерс ekologiyaning nazariy qonuniyatlarini tizimlashtirib, ekologik muvozanat, cheklovchi omillar va antropogen yuklama kabi tushunchalarni ilmiy muomalaga chuqur kiritadi. U ekologiyani nafaqat biologik, balki ijtimoiy-ekologik tizimlar doirasida ham ko'rib, insoniyatning tabiat bilan o'zaro ta'sirini me'yorlashtirish zarurligini asoslaydi. V.I. Вернадскийning "biosfera" haqidagi ta'limoti esa ekologik tafakkurning falsafiy asoslarini shakllantirdi. U insoniyatni biosferaning geologik kuchiga aylangan ongli omil sifatida talqin qilib, noosfera konsepsiyasi orqali tabiat va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasini ilgari surdi.

N.N. Моисеев inson va noosfera o'rtasidagi munosabatlarni chuqur tahlil qilib, ekologik inqirozning oldini olish uchun ilmiy tafakkur va global mas'uliyat zarurligini ta'kidlaydi. Uning qarashlarida barqaror rivojlanish g'oyasi insoniyatning axloqiy va ilmiy yetukligi bilan bog'liq holda izohlanadi. E.V. Гирцов ekologiya va iqtisodiyot o'rtasidagi uzviy aloqani ochib berib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiy samaradorlikning muhim sharti ekanini asoslaydi. U ekologik cheklovlarni hisobga olmagan iqtisodiy o'sish uzoq muddatli istiqbolda salbiy oqibatlariga olib kelishini ilmiy jihatdan ko'rsatadi.

V.P. Кучерявый ekologik tizimlarning barqarorligini saqlash mexanizmlarini tahlil qilib, urbanizatsiya va sanoatlashuv sharoitida ekologik monitoring hamda boshqaruvning ahamiyatini yoritadi. A.V. Яблоков esa ekologik omillarning inson salomatligiga ta'sirini tadqiq etib, atrof-muhit ifloslanishi va kasalliklar o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ilmiy dalillar asosida ko'rsatadi. Uning tadqiqotlari ekologik xavfsizlikni sog'liqni saqlash siyosatining ajralmas qismi sifatida qarash zarurligini asoslaydi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlari ham mazkur mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi. SH.A. Bekmurotov ekologiya va atrof-muhit muhofazasining milliy huquqiy va tashkiliy asoslarini yoritib, O'zbekiston sharoitida ekologik siyosatni takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi. A.A. Qodirov ekologik xavfsizlikni davlat va jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida baholab, ekologik tahdidlarni kamaytirish bo'yicha tizimli yondashuvni taklif etadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy manbalar ekologiyaning inson hayoti, sog'lig'i va iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog'liqligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab beradi. Ushbu adabiyotlar ekologik barqarorlikni ta'minlash, noosferaviy tafakkurni shakllantirish hamda zamonaviy jamiyat rivojlanishida ekologik omillarni strategik ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etish zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlarini o'rganish, shuningdek, statistik ma'lumotlarni yig'ish orqali olindi. Olingan ma'lumotlar tizimli yondashuv asosida umumlashtirildi, taqqoslash va mantiqiy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, ekologik omillarning inson hayoti va jamiyat rivojlanishiga ta'siri baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi globallashtirish davrida ekologiya masalalari insoniyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib kelmoqda. Ekologiya — tirik organizmlar, jumladan, inson va uni o'rab turgan tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi fan hisoblanadi. Insonning ishlab chiqarish faoliyati, sanoatlashuv, urbanizatsiya va transport tizimining jadal rivojlanishi tabiatga katta bosim o'tkazmoqda. Tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish, havo va suvning ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi hamda iqlim o'zgarishi global ekologik inqirozga sabab bo'lmoqda. Bu esa inson hayoti sifatiga, salomatligiga va jamiyatning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ekologiya fani va ekologik siyosat hozirgi zamonda strategik ahamiyat kasb etmoqda.



Inson tabiatning ajralmas qismi hisoblanadi. Atrof-muhitda sodir bo'layotgan har qanday o'zgarish inson hayotiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Toza havo, sifatli ichimlik suvi, unumdor tuproq va biologik xilma-xillik inson hayotining asosiy shartlaridir.

Inson tabiatning ajralmas qismi hisoblanadi. Atrof-muhitda sodir bo'layotgan har qanday o'zgarish inson hayotiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Toza havo, sifatli ichimlik suvi, unumdor tuproq va biologik xilma-xillik inson hayotining asosiy shartlaridir. Ekologik muvozanatning buzilishi tabiiy ofatlar, qurg'oqchilik, suv toshqinlari, cho'llanish jarayonlarining kuchayishiga olib keladi. Bu holatlar aholi yashash sharoitiga, oziq-ovqat xavfsizligiga va iqtisodiy barqarorlikka jiddiy tahdid soladi. Shuning uchun ekologik muammolarni inson hayotidan ajratib ko'rib bo'lmaydi.

Inson salomatligi ko'p jihatdan atrof-muhit holatiga bog'liq. Havo ifloslanishi nafas yo'llari kasalliklari, bronxial astma, allergiya va yurak-qon tomir xastaliklarining ko'payishiga sabab bo'ladi. Suv manbalarining ifloslanishi esa ichak kasalliklari, zaharlanish va turli infeksiyon xastaliklarni keltirib chiqaradi.

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, ekologik omillar inson salomatligiga ta'sir etuvchi asosiy xavf faktorlaridan biri hisoblanadi. Bu borada Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har yili millionlab insonlar ekologik ifloslanish oqibatida vafot etmoqda. Demak, atrof-muhitni muhofaza qilish — inson salomatligini saqlashning muhim shartidir.

Ekologik barqarorlik iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog'liq. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlab qolish imkonini beradi. Ekologik muammolar esa katta iqtisodiy zarar keltiradi, sog'liqni saqlash xarajatlarini oshiradi va ishlab chiqarish sur'atlarini pasaytiradi.

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan. Bu yondashuv iqtisodiy o'sish bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlaydi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlodlar manfaatlarini ham hisobga olishni nazarda tutadi. U iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar o'rtasidagi muvozanatga asoslanadi.

Ekologik barqarorlik barqaror rivojlanishning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan barqaror rivojlanish maqsadlari ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan muhim dasturiy hujjat hisoblanadi.

Ekologik muammolarni hal etishda faqat texnik chora-tadbirlar yetarli emas. Aholining ekologik ongini oshirish, ekologik madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ekologik ta'lim bolalikdan boshlab berilishi, insonlarda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni tarbiyalashi lozim.

Ekologik madaniyat yuqori bo'lgan jamiyatda tabiatni muhofaza qilish, resurslarni tejash va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan amaliy ishlar samarali kechadi. Zamonaviy ekologik muammolar va ularni hal etish yo'llari. Hozirgi kunda insoniyat quyidagi asosiy ekologik muammolarga duch kelmoqda:

- iqlim o'zgarishi;
- havo va suv ifloslanishi;
- biologik xilma-xillikning kamayishi;
- chiqindilar muammosi;
- cho'llanish va yer degradatsiyasi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun xalqaro hamkorlik, ekologik qonunchilikni kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va aholining ekologik faolligini oshirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari ekologiyaning inson hayoti va zamonaviy jamiyat rivojlanishida strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Atrof-muhit holati inson salomatligi, oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik hamda ijtimoiy farovonlik bilan bevosita bog'liq. Ekologik muvozanatning buzilishi nafaqat tabiiy tizimlarga, balki jamiyatning uzoq muddatli taraqqiyotiga ham jiddiy tahdid tug'diradi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, ekologik barqarorlikni ta'minlash iqtisodiy o'sishdan ajratib ko'rib bo'lmaydi. “Yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash barqaror rivojlanishning muhim shartidir. Shu bilan birga, ekologik muammolarni hal etishda faqat texnologik yondashuv yetarli emas; aholining ekologik ongini oshirish, ekologik madaniyatni shakllantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, ekologik masalalarni hal etish kompleks, tizimli va uzoq muddatli strategiyani talab etadi. Ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali inson hayoti sifati yaxshilanadi hamda zamonaviy jamiyatning izchil va xavfsiz rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Одум Ю. Экология. – М.: Мир, 1986.
2. Реймерс Н.Ф. Экология. Теории, законы, правила. – М.: Россия молодая, 1994.
3. Вернадский В.И. Биосфера. – М.: Наука, 1989.
4. Гирусов Э.В. Экология и экономика природопользования. – М.: ЮНИТИ, 2010.
5. Кучерявый В.П. Экология. – СПб.: Питер, 2012.
6. Моисеев Н.Н. Человек и ноосфера. – М.: Молодая гвардия, 1990.
7. Bekmuratov SH.A. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
8. Qodirov A.A. Ekologik xavfsizlik asoslari. – T.: Fan, 2020.
9. Яблоков А.В. Экология и здоровье человека. – М.: Наука, 2001.
10. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti. Atrof-muhit va salomatlik bo'yicha hisobotlar.
11. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha hujjatlar.
12. UNEP. Global Environment Outlook. – Nairobi, 2019.
13. Daly H.E. Ecological Economics. – Washington: Island Press, 1996.
14. Meadows D. Limits to Growth. – New York: Universe Books, 1972.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>